



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2022- YIL YANVAR (DASTLABKI MA'LUMOT)




## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida Viloyat korxonalari tomonidan 475,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 110,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 36,9 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 14,6 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	21,2	13,7	-7,5
Neft, ming t.	-	7,4	7,4




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	1,6	2,7	1,1
Chaqiq tosh, ming t.	3,6	3,9	0,3

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar

FHI,% da



2022- yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 437,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,0 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar


90,7 %

2022- yil yanvar

92,0 %




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar oyida – 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,2 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,5 % (19,7 %) va quyi texnologiyalisi – 72,9 % (70,9%)ni tashkil etdi.





■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,2 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 36,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 54,0 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 126,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,6 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 66,3 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2022- yilning yanvar oyida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2,1 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 30,4 % ga kamaygan), 3,5 ming tonna kalava ip (10,7 % ga oshgan), 5,6 ming tonna neft bitumi (38,9 % oshgan), 2,3 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (1,7 m.) hamda 5,8 ming tonna paxta chigiti (23,5 % ga oshgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	3,0	2,1	-0,9
Kalava ip, ming t.	3,1	3,5	0,4
Boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut), ming t.	1,3	2,3	1,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	3,1	3,5	0,4
Sariyog' t.	0,03	0,4	0,37
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,5	0,4	-0,1

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 98,5 % tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi esa, 0,3 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 1,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 38,3 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 960,1 mln. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,7 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 78,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 29,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 45,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 112,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 54,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 26,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 256,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 %, fizik hajm indeksi 83,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 18,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 74,9 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 50,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,1 % ni, fizik hajm indeksi 133,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 52,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 256,8 % ga oshgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 99,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 136,9 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4,2	0,0	-4,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7,6	2,6	-5,0

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	285,0	17,2	-267,8
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1302,6	1459,0	156,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 4,0 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 17,2 mln. so'm shuningdek, 1,5 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 138,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 29,1 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar

52,0 %

2022- yil  
yanvar

53,5 %

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar

48,0 %

2022- yil  
yanvar





46,5 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,2 % (2021- yil yanvar oyida 85,8 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rch tumaniga to'g'ri kelib 16,3 % ni, Termiz shahri 16,0 % ni, Denov tumani 15,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (115,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Muzrabot (223,4 %), Sherobod (187,5 %), Jarqo'rg'on (171,9 %), Oltinsoy (158,9 %), Uzun (136,7 %), Qumqo'rg'on (135,5 %), Termiz (133,8 %), Bandixon (126,7 %) hamda Sho'rchi (121,0 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumaniga 16,3 % to'g'ri kelib shuningdek, Termiz shahrida 16,0 %, Denov tumanida 11,2 % ni tashkil etdi.*



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm



**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 17,3 % ni, shuningdek, Sherobod tumani 12,7 % ni, Termiz shahri esa 12,1 % ni tashkil etdi.*

**Surxondaryo Viloyati**

2020- yil

380,0 mlrd. so'm

2021- yil

362,6 mlrd. so'm

2022- yil

475,2 mlrd. so'm



2020- yil


101,4 %

2021- yil

109,6 %

2022- yil

110,6 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo'rg'on (366,8 ming so'm), Sherobod (301,3 so'm), Termiz shahri (309,0 so'm), Termiz (277,9 ming so'm), Sariosiyo (247,1 ming so'm), hamda Qiziriq (246,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (175,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Surxondaryo Viloyati

2020- yil

146,2 ming so'm

2021- yil

136,6 ming so'm

2022- yil

175,2 ming so'm



01

2020- yil

96,2 %

02

2021- yil

111,6 %

03

2022- yil

108,3 %



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 51,0 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 119,1 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 104,7 ming so'mni, Termiz tumanida – 100,4 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 61,9 ming so'mni tashkil etdi.

**Surxondaryo Viloyati**

